


## 2019-yilning dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasi



➤ 2019-yilning dekabrda iste'mol narxlari darajasining oy davomidagi o'rtacha o'sish sur'ati 1,7 %ni tashkil etdi.

➤ 2019-yil yanvar-dekabr oylarida iste'mol bozorida tovarlar va xizmatlar narxlari 15,2 %ga qimmatlashdi.



➤ 2018-yilning dekabrda tovarlar va xizmatlar narxlari oy davomida o'rtacha 2,1 %ga ko'tarilgan.

➤ Umumiy hisobda 2018-yil davomida iste'mol sektoridagi narx va tariflarning o'rtacha o'sish sur'ati 14,3 %ni tashkil etgan.

O'rtacha oylik narx indeksleri o'sish sur'atining<sup>1</sup> hisoblanish tartibiga ko'ra, 2019-yilning yanvar-dekabr oylari davomidagi iste'mol narxlari indeksi 1,2 %ni tashkil etgan. Shunday qilib, dekabr oyi davomida umumiy iste'mol narxlari indeksi joriy yilning yanvar-dekabr oylaridagi o'rtacha oylik o'sish sur'ati ko'rsatkichidan 0,5 darajaga yuqori bo'ldi.


<sup>1</sup>O'rtacha oylik o'sish sur'ati o'tgan oyga nisbatan har bir o'rganilayotgan oyidagi narx indeksleri o'sishining o'rtacha geometrik ko'rsatkichi sifatida aniqlanadi.

➤ **Taqqoslash uchun:** 2018-yilda oylik o'rtacha INI o'sish sur'ati 1,1 %ni tashkil etgan. Shunday qilib, o'tgan yilning dekabr oyidagi iste'mol narxlari va tariflarning o'sishi o'rtacha ko'rsatkichdan 1 darajaga yuqori bo'lgan



### O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy INI dinamikasi, %

o'tgan oyga nisbatan




2019-yil davomidagi narxlarning eng yuqori o'sishi va pasayishi avgust (o'sish sur'ati 2,9 %) hamda iyun (pasayish darajasi 0,5 %) oylariga to'g'ri keladi. Shunday qilib, joriy yilning dekabr oyidagi iste'mol narxlari indeksi o'sish sur'ati 2019-yilning yanvar-dekabr oyidagi maksimal ko'rsatkichdan 1,2 darajaga past, minimal natijadan 2,2 darajaga yuqori bo'ldi.

➤ **Taqqoslash uchun:** 2018-yilning shu davridagi qisqa muddatli umumiy INI dinamikasining tahlili shuni ko'rsatdiki, umumiy ko'rsatkichning eng yuqori o'sishi yanvar oyida (2,7 %), sezilarli darajada pasayishi esa iyun oyida (0,4 %) qayd etilgan. 2018-yilning dekabr oyidagi umumiy INI o'sish sur'ati 2018-yil yanvar-dekabr oyidagi oylik maksimal ko'rsatkichdan atigi 0,6 darajaga pastroq bo'lgan

2019-2018-yillarning o'n ikki oyi davomidagi qisqa muddatli oylik umumiy iste'mol narxlari indeksi taqqoslash natijalariga ko'ra, ko'rsatkichlar orasidagi maksimal chekinish yana avgust oyiga to'g'ri keladi (2019-yildagi 102,9 %ga qarshi 2018-yildagi 100,3 %). Dekabr oyidagi farq esa 0,4 darajani tashkil etgan (2019-yil dekabrda 101,7 %ga qarshi 2018-yil dekabr oyidagi 102,1 %).

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha  
umumiy INI dinamikasi, %

o'tgan yilning dekabriga nisbatan




O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan 2018 va 2019-yillarning oylar davomidagi umumiy INIning taqqoslash natijalariga ko'ra ko'rsatkichlar orasidagi minimal tafovut aprel oyida qayd etilgan (105,3 %ga qarshi 105,8 %, yoki 0,5 daraja). Sezilarli darajadagi farqlanish esa avgust oyi natijasiga to'g'ri keladi (108,2 %ga qarshi 106,2 % yoki 2,0 daraja). Dekabr oyida ko'rsatkichlar orasidagi uzilish 0,9 darajani tashkil etgan (115,2 %ga qarshi 114,3 %).

Quyida yillik ko'rinishda 2018-2019-yillarning umumiy INI oylik dinamikasi namoyish etilgan:



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha  
umumiy INI dinamikasi, %

o'tgan yilning mos oyiga nisbatan



Izoh: shu va keyingi infografikalardagi oylar rim raqamlarida ko'rsatilgan

Joriy yilning dekabr oyida yillik INI o'tgan oyning shu ko'rsatkichi bilan taqqoslanganda, ushbu ko'rsatkich 0,4 darajaga pastroq bo'lgan (115,6 %dan 115,2 %gacha). Shu bilan birga, ushbu ko'rsatkichning 2019-yil davomidagi maksimal qiymati avgustda (116,5 %), minimali yanvarda (113,0 %) qayd etilgan.

Shunga qaramay, 2018-2019-yillarda umumiy INI o'zgarishi yillik tendensiya chizig'i pasayib borganligini (yuqoridagi jadvalga qarang), 2019-yil uchun alohida hisoblanganda esa ko'rsatkichlarning ko'tarilish tomon ildamlaganligini ko'rish mumkin. Shunday qilib, agar joriy yil boshida yillik INI 113,0 %ni tashkil etgan bo'lsa, yil oxiriga kelib u 115,2 %ga yetdi.

Yillik davrda iste'mol narxlari indeksining ko'rsatkichlarini o'zaro taqqoslaganda, so'nggi ikki yil davomidagi eng yuqori natija 2018-2019-yillarning yanvar oyiga to'g'ri keladi (mos ravishda 120,1 % hamda 113,0 %).

Yirik guruhlar bo'yicha narxlar o'zgarishi tahlili natijalariga ko'ra, narx va tariflarning qimmatlashishi bo'yicha yetakchi o'rin o'tgan oydagi kabi

oziq-ovqat mahsulotlari narxlariga tegishlidir. So'nggi oy davomida oziq-ovqat mahsulotlari o'rtacha 3,3 %ga oshgan vaqtda nooziq-ovqat mahsulotlari bor yo'gi 0,5 %ga, xizmatlar narxlari esa 0,3 %ga qimmatlashgan.



2019-yilning dekabr oyida  
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy  
guruhlarining iste'mol narxlari indeksi, %

2019-yilning noyabriga nisbatan

2018-yilning dekabriga nisbatan

### Oziq-ovqat mahsulotlari

103,3



118,6

### Nooziq-ovqat mahsulotlari

100,5



110,9

### Xizmatlar

100,3



115,2



➤ **Taqqoslash uchun:** 2019-yilning dekabrda narx va tariflarning o'sishi bo'yicha yetakchilik ham oziq-ovqat mahsulotlariga tegishli bo'lib, narxlar oy davomida 3,2 %ga qimmatlashgan. Ushbu davrda nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlar 1,3 %ga oshgan.



2019-yilning dekabr oyida  
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy  
guruhlarining iste'mol narxlari indeksi, %

o'tgan yilning dekabriga nisbatan

Umumiy hisobda, 2019-yil davomida oziq-ovqat mahsulotlari 18,6 %ga qimmatlashdi. Ushbu davr mobaynida nooziq-ovqat mahsulotlari 10,9 %, xizmatlar 15,2 %ga oshdi.



➤ **Taqqoslash uchun:** 2018-yil yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat, nooziq-ovqat mahsulotlari, shuningdek, xizmatlar narxlarining o'sish sur'ati mos ravishda 14,9 %, 12,5 % va 15,8 %ni tashkil etdi.



oziq-ovqat  
mahsulotlari



nooziq-ovqat  
mahsulotlari



xizmatlar

Yuqorida qayd etilganidek, joriy yil davomida tovarlar va xizmatlar narxlarining oy davomidagi maksimal o'sish sur'ati avgust oyida ro'yxatga olingan (2,9 %). Quyida keltirilgan ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, narxlarning umumiy ko'tarilishi aholi uchun pullik xizmatlar narxlarining o'sishi bilan bog'liq (5,6 %). Shu bilan birga avgust oyidagi oziq-ovqat hamda nooziq-ovqat mahsulotlari narxlari ham nisbatan yuqori darajada qimmatlashgan (oy davomidagi o'sish sur'ati 2,3 % va 2,1 %).


Quyida keltirilgan grafik ma'lumotlariga asosan, umumiy INI ko'rsatkichining minimal darajagacha pasayishi 2019-yilning iyun oyida qayd etilgan bo'lib, bu esa oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining arzonlashishi (oy davomida 1,8 %) va nooziq-ovqat mahsulotlar hamda

xizmatlar guruhi narxlarining (mos ravishda 0,6 % va 0,7 %) past sur'atlarda ko'tarilganligi bilan bog'liqdir.



2019-yilning yanvar-dekabr oylarida  
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tovarlar  
va xizmatlar asosiy guruhlarining  
iste'mol narxlarini indeks dinamikasi, %

o'tgan oyga nisbatan




**Shunisi e'tiborga loyiqki, 2019-yilda oziq-ovqat narxlarining oy davomidagi eng sezilarli o'sishi davr oxiriga to'g'ri keldi (dekabrda ularning o'sish sur'ati 3,3 % ni tashkil etdi). Shu bilan birga, an'anaviy ravishda oziq-ovqat narxlarining yuqori darajada o'sishi yilning birinchi va uchinchi choragiga, eng past o'sish sur'atlari esa bahor-yoz oylariga xosdir (bozorning meva-sabzavot mahsulotlari yangi hosilining ommaviy to'ldirish davri). Bu esa 2019-yil bundan mustasno emasligini ko'rsatadi.**

2017 yilning dekabr oyiga nisbatan hisoblangan uzoq muddatli iste'mol narxlarini indeksida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini 2019-yilning dekabr oyiga kelib 136,3 %ni, nooziq-ovqat mahsulotlari 124,7 %ni, xizmatlar 133,4 %ni tashkil etdi. Mazkur davr mobaynida umumiy ko'rsatkich 31,6 %ga o'sgan.




### O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tovarlar va xizmatlar asosiy guruhlarining iste'mol narxlari indeksi, %

2018-yilning dekabriga nisbatan



2017-yilning dekabriga nisbatan



Iste'mol narxlari indeksining o'rtacha oylik hisoblanishi natijalariga ko'ra, 2018-yilning yanvaridan 2019-yilning dekabr oyiga qadar oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 1,4 %, nooziq-ovqat mahsulotlari 0,9 %, xizmatlar 1,2%ni tashkil etdi.

Har bir yirik guruhning salmoq vaznini hisobga olgan holdagi narxlar o'zgarishi tahliliga ko'ra, 2019-yilning dekabr oyida ham oxirgi ikki oy davomidagi kabi narxlarning ko'tarilishi bo'yicha yetakchilik oziq-ovqat mahsulotlari narxlariga tegishlidir.


*Shunday qilib, umumiy INIning 1,7 foiz darajada o'sishida (keyingi o'rinlarda – f.d.) oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining qimmatlashish ta'siri 1,4 f.d.ni tashkil etgan.*

*Nooziq-ovqat mahsulotlari narxlarining ko'tarilishi oylik umumiy natijaning o'sishiga qo'shimcha ravishda 0,2 f.d., xizmatlar tariflari esa 0,1 f.d.da hissa qo'shdi.*



**2019-yilda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tovarlar va xizmatlar asosiy guruhlari narxlarining o'zgarishi va ularning umumiy INI o'sishiga ta'siri, %**

**o'tgan oyga nisbatan**



Oziq-ovqat mahsulotlari



Nooziq-ovqat mahsulotlar



Xizmatlar

➤ **Taqqoslash uchun:** 2018-yilning dekabr oyida ham umumiy oylik iste'mol narxlarining indeksi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining ko'tarilishi ta'sirida shakllandi (2.1 f.d.dan 1.4 f.d.). Nooziq-ovqat tovarlari narxlarining o'sishi jami ko'rsatkichga 0,4 f.d., xizmatlar 0,3 f.d.da ta'sir ko'rsatgan.


Umumiy iste'mol narxlari indeksi tuzilmasini salmoq ko'rsatkichlarida yanada batafsil ko'rish mumkin.

Shunday qilib, 2019-yilning so'nggi oyidagi umumiy ko'rsatkichdagi oziq-ovqat mahsulotlari ulushi 85,7 %, nooziq-ovqat tovarlar 10,1 % va xizmatlar 4,2 %ni tashkil etgan.


➤ **Taqqoslash uchun:** 2018-yilning dekabrda ham umumiy ko'rsatkichning o'sishiga bo'lgan ta'siri borasidagi ustunlik oziq-ovqat mahsulotlari tomon siljigan vaqtda (65,6 %), nooziq-ovqat mahsulotlari hamda xizmatlar ulushi 21,2 % va 13,3 %ni tashkil etgan.




O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tovarlar va xizmatlar asosiy guruhlari narxlarining oy davomidagi o'zgarishi va ularning umumiy INI o'sishiga ta'siri ulushi, %



Umumiy INI tuzilmasiga ko'ra, iyul va avgust oyi natijalarini inobatga olmaganda, 2018-yilning dekabr oyiga nisbatan 2019-yil davomida umumiy iste'mol narxlarini indeksining o'sishiga oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining qimmatlashishi ta'siri sezilarli darajani tashkil etgan. Oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlar narxlarining o'sishi hamda ularning umumiy ko'rsatkichga ta'sir darajasida tenglik (iyul) yoxud birozgina oziq-ovqat mahsulotlarining ustunligi (avgust) kuzatilgan.



O'tgan yilning dekabriga nisbatan 2019-yilda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy tovarlar va xizmatlar guruhi narxlarini o'zgarishining umumiy INIdagi ta'sir ulushi, %




**Taqqoslash uchun:** 2017-yilning dekabr oyiga nisbatan 2018-yilning yanvar oyidan may oyigacha umumiy INI tarkibida ta'siri bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari inflyatsiyasi yetakchilik qilib (ta'siri 1,6 f.d.dan 2,8 f.d.ga oshgan), iyun oyidan sentabrgacha ustunlik nooziq-ovqat mahsulotlar tomon siljib, oktabrdan dekabrgacha yana oziq-ovqat mahsulotlari tomon qaytgan.

Dekabr oyida nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlar narxlarning ko'tarilishi umumiy iste'mol narxlarini indeksining o'sishiga 3,8 va 3,3 f.d.da ta'sir etib, bu esa oziq-ovqat mahsulotlarining tegishli ko'rsatkichidan sezilarli darajada past (mos ravishda 4,3 va 4,8 darajada).




2018 va 2019-yillarda asosiy tovarlar va xizmatlar guruhlari narxlarining o'zgarishi hamda ularning umumiy INning o'sishidagi ta'siri tuzilmasi

2019-yil yanvar-dekabr



2019-yilning dekabr oyida ulush ko'rsatkichlari bo'yicha oziq-ovqat, nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlar narxlarining o'sishi ta'sirining nisbati mos ravishda 53,4 %, 24,9 % va 21,7 %ni tashkil etdi.

➤ **Taqqoslash uchun:**  
2018-yilning dekabr oyida ta'sir ulushlari bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari 44,7 %, nooziq-ovqat mahsulotlari 30,8 %, xizmatlar 24,5 %ni tashkil etgan



2018-yil yanvar-dekabr



Oziq-ovqat mahsulotlari



Nooziq-ovqat mahsulotlar




Xizmatlar

O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan 2019-yil va 2018-yilning dekabrda umumiy INning tarkibiy ko'rinishiga asosan, oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'zgarishining ta'siri ustunligini taxmin qilishimizga imkon beradi. Shunday qilib, 2019-yilning dekabrda ushbu tovarlar guruhining ulushi 53,4 %, 2018-yilning dekabrda esa 44,7 %ni tashkil etdi (farq 8,7 darajada). Ushbu fonda 2019-yilning dekabr oyidagi nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlarining salmoq ko'rsatkichlari 2018-yilning dekabridagiga nisbatan past bo'ldi (24,9 %ga qarshi 30,8 % va 21,7 %ga qarshi 24,5 %).

**5**

**Bu qiziq!**

**Yoxud 2019-yil davomida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha INI to'g'risidagi beshta qiziqarli fakt**




**2019-yilda** iste'mol narxlari tanlanma kuzatuv qamrovi **386** ta tovar va xizmatlardan, shulardan **112** tasi oziq-ovqat mahsulotlari, **206** tasi noziq-ovqat mahsulotlari va **68** tasi xizmatlardan iborat bo'lgan. **2020** yildan boshlab inflyatsiya jarayonlarini sinchikovlik bilan kuzatib borish va qiyosiylikni ta'minlash maqsadida ro'yxatni kengaytirish ishlari rejalashtirilmoqda.

## Oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi

2019-yilning oxirgi oyida oziq-ovqat mahsulotlari 3,3 %ga ko'tarilib, bu o'tgan oyning mazkur ko'rsatkichiga nisbatan 0,3 darajaga ko'p demakdir. Bu esa umumiy INI ko'rsatkichini 1,4 f.d.ga oshirdi.

2019-yil boshidan mazkur guruh tovarlari narxlari o'rtacha 18,6 %ga qimmatlashib, INIning o'rtacha oylik o'sishi 1,4 %ni tashkil etgan. Shunday qilib, 2019-yilning dekabr oyida ushbu guruh tovarlari narxlari 2019-yilning yanvar-dekabr oyidagi oylik o'rtacha o'sish sur'atidan 1,9 darajaga yuqori bo'ldi.




- **Taqqoslash uchun:** o'tgan oy davomida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining 3,0 %ga oshganligi, ushbu oydagi umumiy iste'mol narxlari indeksining ko'tarilishiga 1,3 f.d.da ta'sir etgan.
- 2019-yilning yanvar-noyabr oylari davomida oziq-ovqat mahsulotlari o'rtacha 14,8 %ga ko'tarilgan.

Meva-sabzavot, sut mahsulotlari, tuxum va boshqa oziq-ovqat mahsulotlariga narxlarning mavsumiy o'zgarishi sababli, oziq-ovqat mahsulotlarining oylik qisqa muddatli iste'mol narxlari dinamikasi yil davomida an'anaviy ravishda boshqa guruhlarga qaraganda ko'proq tebranishlarga uchraydi. So'nggi ikki yil ham bundan mustasno emasligini quyidagi jadval ma'lumotlari tasdiqlaydi:



### O'zbekiston Respublikasi bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, %

o'tgan oyga nisbatan



○ 2018-yil

■ 2019-yil

O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan 2019-2018-yillarning har bir oylari davomida oziq-ovqat mahsulotlaridagi narxlarning taqqoslash natijalariga ko'ra, ko'rsatkichlar orasidagi maksimal tafavut avgust (102,3 %ga qarshi 100,3 %) va sentabr (101,4 % qarshi 103,3 %) oylarida qayd etilgan.

➤ **Ma'lumot uchun:** 2018-yilning avgust oyida iste'mol narxlari indeksini barqarorlashtiruvchi omil sifatida meva-sabzavot mahsulotlari narxlarining sezilarli darajada arzonlashgani (1,8 %) hamda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining past sur'atlarda qimmatlashganini qayd etish mumkin. 2019-yilning avgust oyidagi meva-sabzavot mahsulotlari narxlarining pasayishi unchalik sezilmagan vaqtda (0,5 %), go'sht mahsulotlari (6,3 %), tuxum (3,5 %) va non mahsulotlari (1,7 %) narxlarining qimmatlashganligini asosiy inflyatsion omil sifatida qayd etish mumkin.

Asosiy guruhlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksini o'zaro taqqoslash natijalariga ko'ra, 2019-2018-yillarning sentabr oylaridagi tovarlar narxlari ko'rsatkichlari orasidagi keskin farq non mahsulotlari (101,2 %ga qarshi 110,9 %) va meva-sabzavot mahsulotlari (98,9 %ga qarshi 103,8 %) xissasiga to'g'ri keladi.

2019-2018-yillarning dekabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining INI ko'rsatkichlari nisbatan yaqin bo'lsa (103,3 % va 103,2 %), ayrim tovarlar guruhlari bo'yicha ko'rsatkichlar orasidagi farq sezilarli bo'ldi.


➤ **Ma'lumot uchun:** 2018-yilning dekabr oyiga nisbatan 2019-yilning dekabr oyida tuxum (7,0 %ga qarshi 0,2 %) va meva-sabzavot mahsulotlari (13,7 %ga qarshi 10,0 %) sezilarli darajada o'sdi. Shu bilan birga, o'tgan yilning dekabr oyida qandolat mahsulotlari (2,9 %ga qarshi 2,0%), yog' va moylar (2,0 %ga qarshi 0,4 %), shuningdek, umumiy ovqatlanish (3,1 %ga qarshi 1,5 %) narxlarining sezilarli o'sishi qayd etildi.

O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan so'nggi ikki yil davomida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'zgarishi nisbatan o'xshash tendensiyaga ega.



### O'zbekiston Respublikasi bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, %

o'tgan yilning dekabriga nisbatan



Biroq, o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan 2019-yilning fevral oyidan noyabr oyiga qadar oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi 2018-yilning mos oyidagi ko'rsatkichlarga nisbatan yuqori


bo'lganligi yuqoridagi grafik ma'lumotlarida aks etgan. Shu bilan birga, ko'rsatkichlar orasidagi yaqqol farq avgust oyida qayd etilgan (106,9 %ga qarshi 102,6 % yoki 4,3 daraja). Dekabr oyida ko'rsatkichlar orasidagi tafovut esa 3,7 darajani tashkil etgan (118,6 %ga qarshi 114,9 %).

2019-2018-yillarning yanvar oyidagi oziq-ovqat mahsulotlarining yillik iste'mol narxlari indeksi orasidagi tafovut maksimal darajani tashkil etgan bo'lishiga qaramay (mos ravishda 114,1 %ga qarshi 126,8 % yoki 12,7 daraja), sentabr oyiga kelib ushbu tafovut deyarli yo'qoldi (sentabr oyida bir xil ko'rsatkich). Oktabr oyidan boshlab ko'rsatkichlar orasidagi farq joriy yil natijalari tomon siljiy boshladi (oktabr oyidagi farqlanish darajasi 0,6, noyabrda 1,1, dekabrda 3,7 daraja). Shunday qilib, 2019-yilda trend chizig'i yuqoriga yo'nalgan bo'lsa, 2018-yil ko'rsatkichlarida esa aksincha, pasayib borgan.



**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, %**


o'tgan yilning mos oyiga nisbatan



➤ 2019-yilning dekabrda oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlarining narxlari orasida oy davomida meva-sabzavot mahsulotlari (13,7 %) va tuxum (7,0 %), yil davomida esa tuxum (31,8 %), non mahsulotlari (24,8 %) va go'sht mahsulotlari (23,4 %) narxlari boshqalarga nisbatan sezilarli darajada oshdi.



2019-yilning dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlarining INIsi, %



Non mahsulotlari

101,7

124,8



Go'sht, parranda go'shti va baliq

100,9

123,4



Tuxum

107,0

131,8



Sut mahsulotlari

101,8

118,1



Yog' va moylar

100,4

107,5



Mevalar, sabzavotlar va kartoshka

113,7

114,5



Shakar, choy va oziq-ovqat mahsulotlari

100,8

111,4



Alkogsiz ichimliklar

100,9

114,1



Spirтли ichimliklar

100,5

115,7



2019-yilning noyabriga nisbatan



2018-yil dekabriga nisbatan



➤ **Taqqoslash uchun:** 2018-yilning dekabr oyida boshqa oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan oy davomida meva va sabzavotlar (10,0 %) va umumiy ovqatlanish (3,1 %) narxlari yuqori darajada ko'tarildi. Umumiy hisobda, 2018-yilda non (28,5 %) va go'sht mahsulotlari (21,7 %) narxlari sezilarli darajada qimmatlashgan.

**Non mahsulotlari** (yormalar va dukkaklilarni hisobga olgan holda) narxlari 2019-yilning dekabr oyida 1,7 %ga ko'tarilib, umumiy hisobda esa yil davomida narxlarning o'sishi 24,8 %ni tashkil etdi. Quyida so'nggi ikki yil ichida non mahsulotlari narxlari indeksining o'sishi va pasayishi dinamikasi keltirilgan.



**O'zbekiston Respublikasi**  
**bo'yicha non mahsulotlarining iste'mol narxlari**  
**indeksi dinamikasi, %**



o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga nisbatan




2018-yil



2019-yil


Non mahsulotlaridan (yorma va dukkaklilarni qo'shgan holda) dekabr oyida grechka (4,4 %), birinchi nav bug'doy unidan non (3,1 %), mosh (2,4 %), bug'doy uni (2,2 %) narxlari sezilarli darajada oshdi. Shu bilan bir qatorda guruch 1,5 %ga arzonlashdi.

➤ **Taqqoslash uchun:** 2018-yilning oxirgi oyi davomida guruch narxlari 3,4 %, birinchi nav bug'doy unidan non, mosh 3,1 %, bug'doy uni 2,1 %, oliy nav bug'doy unidan non 1,1 %, grechka 0,8 %ga qimmatlashgan.




Umuman olganda, 2019-yilda birinchi navli bug'doy unidan non 1,4 baravar, oliy navlidan 1,3 baravar, bug'doy uni 1,3 baravar, guruch 5,8 %ga qimmatlashdi. 2018-yilda ushbu mahsulotlar narxlari (undan tashqari) yuqori darajada o'sgan.

2019-yilning dekabr oyida **go'sht, parranda go'shti va baliq** mahsulotlari narxlari o'rtacha 0,9 %ga ko'tarilgan.



**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha go'sht, parranda go'shti va baliq mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi o'sish dinamikasi, %**

o'tgan oyga nisbatan



2019-yilning dekabrda parranda go'shti narxлари (son qismlardan tashqari) 1,7 %, tovuq boldiri, son qismlari 1,6 %, qo'y go'shti 1,1 %, mol go'shti (suyaksiz go'shtdan tashqari) 0,6 %, suyaksiz mol go'shti 0,4 %ga oshdi. Tirik va sovutilgan baliq narxлари 1,4 %ga qimmatlashdi.



**Taqqoslash uchun:** 2018-yilning dekabrda parranda go'shti narxлари (son qismlaridan tashqari) oy davomida 3,8 %, tovuq boldiri va son qismlari 4,3 %, qo'y go'shti 0,9 %, mol go'shti (suyaksiz go'shtidan tashqari) 0,7 %, tirik va sovutilgan baliq 1,5 %ga qimmatlashib, suyaksiz mol go'shti narxлари o'zgarishsiz qolgan.

Umumiy hisobda, 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida go'sht, parranda go'shti va baliq narxлари o'rtacha 23,4 %ga ko'tarilganligi 2018-yilning shu davriga nisbatan bu 1,7 daraja ko'p demakdir.



**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha go'sht, parranda go'shti va baliq mahsulotlarining iste'mol narxлари indeksi o'sish dinamikasi, %**

o'tgan yilning dekabriga nisbatan




2018-yil



2019-yil

2019-yil boshidan buyon mol go'shti (suyaksiz go'shtidan tashqari) 26,6 %, qo'y go'shti 25,3 %, suyaksiz mol go'shti 22,5 %, tirik va sovutilgan baliq 17,9 %, parranda go'shti (son qismlardan tashqari) 16,6 %, tovuq boldiri va son qismlari narxlari 12,6 %ga ko'tarilgan.




**Taqqoslash uchun:** tirik va sovutilgan baliqlarni hisobga olmaganda go'sht mahsulotlarining asosiy turlari narxlari jiddiy o'zgarishlarga duch kelmagan. Ushbu guruh mahsulotlari narxlari 2019-yildagi mos ko'rsatkichga nisbatan 19,3 darajaga yuqori bo'lgan.

**Sut va sut mahsulotlari** 2019-yilning dekabr oyida o'rtacha 1,8 %ga qimmatlashganligi 2018-yilning mos oyidagi ko'rsatkichga nisbatan 0,4 darajaga pastroqdir.



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha sut mahsulotlari iste'mol narxlari indeksining o'sish va pasayish dinamikasi, %

o'tgan oyga nisbatan



2019-yilning oxirgi oyida sut 3,3 %, qaymoq 2,1 %, kefir, qatiq va shunga o'xshash mahsulotlar 1,8 %, tvorog 1,7 %, qattiq pishloq 1,5 %, suyultirilgan pishloqlar narxlari 1,3 %ga ko'tarilgan.


➤ **Taqqoslash uchun:** 2018-yilning dekabrda sut mahsulotlari oy davomida 2,0 %, kefir, qatiq va shunga o'xshash mahsulotlar 1,7 %, tvorog 2,5 %, qattiq pishloq 2,1 %, suyultirilgan pishloq 2,2 %ga qimmatlashgan.

2019-yil boshidan sut mahsulotlari narxlari o'rtacha 18,1 %ga qimmatlashganligi 2018-yildagi ko'rsatkichga nisbatan 5,2 darajaga baland bo'lgan.




**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha sut mahsulotlari iste'mol narxlari indeksining o'sishi dinamikasi, %**

o'tgan yilning dekabriga nisbatan



2019-yil davomida sut narxlari 25,0 %, kefir, qatiq va shunga o'xshash mahsulotlar 23,4 %, qaymoq 21,2 %, tvorog 17,9 %, qattiq pishloq 13,6 %, suyultirilgan pishloq 11,9 %ga qimmatlashgan.




**Ma'lumot uchun:** 2019-yilda deyarli barcha asosiy turdagi sut mahsulotlari narxlarining o'sishi 2018-yilga nisbatan yuqori bo'ldi. Narxlar o'zgarishi orasidagi keskin farq kefir, qatiq va shunga o'xshash mahsulotlar narxlarida kuzatilgan (12,7 daraja).

2019-yil davomida tuxum narxining eng yuqori darajada o'sishi noyabr oyida qayd etilib (12,5 %), yilning oxirgi oyida yana 7,0 %ga qimmatlashdi. Umumiy hisobda 2019-yil davomida ushbu turdagi mahsulotlar narxlari 31,8 %ga o'sdi.



**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tuxum iste'mol narxlari indeksining o'sish va pasayish dinamikasi, %**


**o'tgan oyga nisbatan**





## O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tuxum iste'mol narxlari indeksining o'sish va pasayish dinamikasi, %

o'tgan yilning dekabriga nisbatan



➤ **Ma'lumot uchun:** 2019-yilning oxirgi besh oyi davomida (narxlarning fevral oyidan iyun oyiga qadar uzoq vaqt mobaynida arzonlashganidan so'ng) tuxum narxlari 1,4 baravarga ko'tarilgan.

➤ 2018-yilning oxiriga nisbatan 2019-yil davomida eng past narx darajasi iyul oyida qayd etilib, eng yuqori ko'tarilish esa yil oxirida kuzatildi (2018-yilning dekabriga nisbatan mos ravishda 8,9 %ga arzon va 31,8 %ga qimmat).

**Meva-sabzavot mahsulotlari** narxlari so'nggi oy davomida 13,7 %ga qimmatlashgan.


Ushbu guruh tovarlari narxlarining 2019-yildagi mavsumiy o'zgarishlari qisqa muddatli narx indekslarida aniq namoyon bo'ldi. Shunday qilib, bozorni yangi meva-sabzavot mahsulotlari bilan to'yinganligi natijasida guruhning narx ko'rsatkichlari iyun-sentabr oylarida 100,0 %dan pastroq bo'lishiga sabab bo'lib, yanvar-may oylarida, shuningdek, yilning so'nggi uch oyida mahsulotlar narxlarining ko'tarilishi tendensiyasi kuzatildi.

➤ 2018-yil davomida ham shunga o'xshash tendensiya kuzatilgan bo'lib, biroq narxlarning pasayish davri may-avgust oylariga to'g'ri kelgan.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha mevalar,  
sabzavotlar va kartoshkaning INI o'sishi  
va pasayishi dinamikasi, %



o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga nisbatan



2019-yilning dekabr oyida boshqalarga nisbatan bodring va pomidor narxlari sezilarli darajada qimmatlashdi (mos ravishda 2,1 va 1,6 baravar). Shu bilan birga, ularning narxlari 2018-yil oxiridagi narxlar darajasidan 16,3 % va 13,6 %ga past bo'ldi. 2018-yil oxiriga nisbatan narxlarning eng yuqori o'sishi sarimsoq (2,7 baravar), piyoz (1,6 baravar) va uzum (1,5 baravar) mahsulotlariga to'g'ri kelsa, 2019-yilda narxlarning pasayishi bo'yicha yetakchilik bodring va pomidorga tegishlidir.



## O'zbekiston Respublikasi bo'yicha alohida turdagi meva-sabzavot mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi, %


o'tgan yilning dekabriga nisbatan



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha shakar, choy va boshqa mahsulotlar INining o'sish va pasayish dinamikasi, %




o'tgan oyga nisbatan



Shakar, choy va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari narxlari oy davomida 0,8 %ga oshdi. Shakar 0,2 %, kofe, choy va qandolat mahsulotlari narxlari o'rtacha 0,9 %, boshqa oziq-ovqat mahsulotlari (tuz, xamirturush va boshqalar) 1,0 %ga ko'tarilgan. Shu bilan birga, 2019-yildagi ushbu tovarlar guruhi narxlari umumiy o'zgarish tendensiyasi yuqoriga yo'naltirildi (har oy davomida narxlar 0,1-1,9 % oraliqda ko'tarilgan).

o'tgan yilning dekabriga nisbatan

O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan 2019-2018-yilning dekabr oylarida shakar, choy va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indekslarida farq sezilarli darajada katta bo'ldi (111,4 %ga qarshi 102,6 %). Umumiy hisobda, 2019-yil davomida shakar 16,4 %ga, qandolat mahsulotlari 12,0 %, kofe va choy 5,7 %, boshqa oziq-ovqat mahsulotlari narxlari 6,4 %ga ko'tarilgan.



2018-yil


2019-yil

**Yog'-moy mahsulotlari** narxlari 2018-yil oxiriga nisbatan 2019-yilning dekabr oyida kamroq o'sdi (0,4 % qarshi 2,0 %). 2019-yil boshidan buyon ushbu guruh tovarlari narxlari o'rtacha 7,5 %ga, 2018-yilda esa 8,7 %ga oshgan.

**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha  
yog' va moy mahsulotlari INIning o'sish  
va pasayish dinamikasi, %**




o'tgan oyga nisbatan



2019-yilning dekabr oyida sariyog' 0,9 %, margarin 0,5 %, kungaboqar yog'i 0,4 %, paxta yog'i 0,2 %ga qimmatlashgan.

o'tgan yilning dekabriga nisbatan

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida sariyog' narxlari 18,4 %, margarin 12,6 %, kungaboqar yog'i 5,7 %, paxta yog'i 4,1 %ga ko'tarilgan.



**Umumiy ovqatlanish** muassasalaridagi narxlar har oy davomida 0,7 %dan 3,4 %gacha, shu jumladan dekabrda 1,5 %ga oshdi. 2019-yilda uydan tashqarida ovqatlanish narxlari 23,1 %ga qimmatlashdi. 2019-yil boshidan **alkogolsiz ichimliklar** narxi 14,1 %ga (jumladan, dekabrda 0,9 %), spirtli ichimliklar - 15,7 %ga (dekabrda 0,5 %) ko'tarildi.

**Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Davlat soliq qo'mitasining 2019-yil 25 oktabrdagi "Alkogolli ichimliklarning eng kam ulgurji va chakana sotish narxlarini qayta ko'rib chiqish to'g'risida"gi №106, 2019-59-son qaroriga asosan, joriy yilning 1 noyabridan vino, konyak, aroq hamda pivodan tashqari boshqa spirtli ichimliklarning sotish narxlarini qayta ko'rib chiqildi va yangi narxlar amaliyotga joriy qilindi.





**2019-yilning dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlari narxlarining o'zgarishi va ularning INI o'sishidagi ta'siri tuzilmasi, f.d.**

o'tgan oyga nisbatan

umumiy INI o'sishidagi  
hissasi, f.d.

oziq-ovqat mahsulotlarining ta'siri  
ulushi, %



- mevalar, sabzavotlar va kartoshka
- non mahsulotlari
- go'sht, parranda go'shti va baliq
- sut mahsulotlari
- tuxum

Asosiy oziq-ovqat mahsulotlari guruhlarining 2019-yil dekabr oyida umumiy INI o'sishiga qo'shgan hisssasi tahlili quyidagicha: meva-sabzavot mahsulotlarining mavsumiy narxlarini o'zgarishi asosiy inflyatsion bosimni yuzaga keltirgan (1,11 f.d.)

Narxlarning ko'tarilishidagi navbatdagi o'rinni non mahsulotlari band etgan (0,13 f.d.). Narxlarning ko'tarilishi borasidagi yetakchi uchlikni go'sht, parranda go'shti va baliq mahsulotlari yakunlagan (0,09 f.d.).

➤ **Taqqoslash uchun:** 2018-yil dekabr oyida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy guruhlari ta'siridagi yetakchi o'rinlarni mevalar, sabzavotlar hamda kartoshka (0,79 f.d.), non (0,20 f.d.), go'sht, parranda go'shti va baliq mahsulotlari (0,13 f.d.) narxlari band etgan.

Oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlari narxlarining o'zgarishi umumiy iste'mol narxlari indeksining o'sishiga olib keldi. 2019-yilda eng katta ulush go'sht, parranda go'shti va baliq mahsulotlariga to'g'ri keladi (8,1 f.d.dan 2,49 f.d., yoki oziq-ovqat mahsulotlarining umumiy ta'siridan 30,7 %). Keyingi o'rinlarda non (2,00 f.d., yoki 24,6%), meva va sabzavotlar (1,17 f.d., yoki 14,4%) mahsulotlari keladi. Sut mahsulotlari, shuningdek, shakar va choy narxlarining ko'tarilishi va umumiy ko'rsatkichga 1,22 f.d.da ta'sir etgan. Umumiy ovqatlanish muassasalari narxlarining oshishi natijasida jamlanma ko'rsatkich 0,43 foiz darajaga yuqori bo'ldi. Oziq-ovqat mahsulotlarining boshqa guruhlaridagi narxlarning o'zgarishi 0,05 f.d.dan 0,32 f.d.ga oraliqda o'zgargan.




**2019-yilning dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlari narxlarining o'zgarishi va ularning INI o'sishidagi ta'siri tuzilmasi, f.d.**

o'tgan yilning dekabriga nisbatan

umumiy INIdagi ta'siri,  
f.d.


oziq-ovqat mahsulotlari ta'siridagi  
ulushi, %



➤ **Taqqoslash uchun:** 2018-yil davomida umumiy INlga asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlaridan sezilarli darajada non (2,43 f.d.), go'sht, parranda go'shti va baliq (2,24 f.d.), meva-sabzavot mahsulotlari (0,37 f.d.) ta'sir etgan.

**5**

2019-yil davomida kuzatilayotgan oziq-ovqat mahsulotlaridan narxlarning maksimal o'sishi bo'yicha yetakchi 5 pog'ona



2019- yilning yanvar-dekabr oyida yig'ma INldagi umumiy ta'siri


**1,4 f.d.**

Meva-sabzavotlar guruhiga mansub bo'lmagan oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha narxlarning eng yuqori darajada ko'tarilgan yetakchi 5 talik:

- ✓ 1-navli bug'doy unidan non – 44,6 %;
- ✓ mosh – 35,5 %;
- ✓ oliy navli bug'doy uni – 32,2 %;
- ✓ tuxum – 31,8 %;
- ✓ 1- navli bug'doy uni – 30,1 %.

**5**

2019-yil davomida kuzatilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari narxlarning maksimal ta'siri bo'yicha yetakchi 5 pog'ona



2019- yilning yanvar-dekabr oyida yig'ma INIdagi umumiy ta'siri

**3,6 f.d.**

*Mevalar va sabzavotlar bilan bog'liq bo'lmagan oziq-ovqat mahsulotlaridan eng katta ta'sir ko'rsatgan 5 ta mahsulotlarga qo'shimcha ravishda, 2019-yil uchun umumiy INI o'sishidagi infografikada qo'y go'shti ham kirdi (0,25 f.d.).*

*2018-yil davomida umumiy INIga ta'sir darajasi bo'yicha yetakchi pog'onpalarni mol go'shti (suyaksizdan tashqari), guruch, 1-nav bug'doy unidan non, 1-nav bug'doy uni va karam mahsulotlari band etgan. Ushbu mahsulotlari narxlari ko'tarilishining yillik umumiy INIga jamlangan ta'siri 3,76 f.d. to'g'ri keladi.*

## Nooziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi



### O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi, %

2019-yil

dekabr

100,5

yanvar-dekabr

110,9

2019-yil dekabr oyida nooziq-ovqat mahsulotlari o'rtacha 0,5 %ga qimmatlashdi.

2018-yil

dekabr

101,3

yanvar-dekabr

112,5

➤ **Taqqoslash uchun:** 2018-yilning dekabrda oy davomida nooziq-ovqat mahsulotlari 1,3 %ga qimmatlashgan.

2019-yil davomida ushbu guruh mahsulotlari narxlari o'rtacha 10,9 %ga oshgan.

➤ **Taqqoslash uchun:** 2018-yilda nooziq-ovqat mahsulotlari o'rtacha iste'mol narxlarining o'sishi 12,5 %ni tashkil etib, 2019-yilga nisbatan 1,6 darajaga yuqoriroq bo'lgan.


Hisob-kitob natijalariga ko'ra, 2019-yil yanvar-dekabr oylarida nooziq-ovqat tovarlari iste'mol narxlari indeksi bo'yicha o'rtacha oylik o'sish 0,9 %ni tashkil etdi. Shunday qilib, 2019-yilning oxirgi oyida ushbu guruh tovarlari narxlarning o'sishi yanvar-dekabr oylari o'rtacha oylik qiymatidan 0,4 foiz past bo'ldi.

➤ **Taqqoslash uchun:** 2018-yil yanvar-dekabr oylarida nooziq-ovqat mahsulotlari iste'mol narxlari indeksi bo'yicha o'rtacha o'sish sur'ati 1,0 %ni tashkil etdi.



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha  
nooziq-ovqat mahsulotlarining  
iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, %

o'tgan oyga nisbatan



2019-2018-yillarning yanvar-dekabr oylaridagi nooziq-ovqat mahsulotlarining qisqa muddatli oylik iste'mol narxlari indeksi dinamikalarini taqqoslash natijalari quyidagicha.

O'zaro taqqoslanayotgan davrdagi ikki yil natijalari bo'yicha iste'mol narxlari indeksleri orasidagi 1,8 darajalik sezilarli tafovut yanvar-avgust oylariga to'g'ri keladi.

Huddi shu oylarda nooziq-ovqat tovarlari uchun eng yuqori narxlar qayd etildi: 2019-yil avgust oyida (2,1 %), 2018-yil yanvar oyida (2,3 %).

2019-2018-yillarning dekabr oylaridagi ko'rsatkichlar orasidagi farq 1,6 darajani tashkil etgan.

So'nggi ikki yil ichida nooziq-ovqat tovarlari narxlarining o'tgan yilning dekabriga nisbatan O'zgarishining umumiy tendensiyasi o'sish tomon yo'nalgan. Shu bilan birga, ko'rsatkichlar bo'yicha eng katta farq iyul oyida qayd etildi (2018-yilda 108,5 %ga qarshi 2019-yilda


105,7 % yoki 2,8 daraja). Keyingi oylarda narxlar indeksi nisbatan yaqinlashib, shu bilan birga, bu holat oktabr oyida aniq namoyon bo'ldi (0,2 daraja). Noyabr oyidan boshlab ko'rsatkichlar yana o'sish tomon xarakatlana boshladi (noyabrda 0,7 daraja va dekabrda 1,6 daraja).

Shuni alohida qayd etish lozimki, o'tgan yil oxiriga nisbatan 2019-yilda guruh bo'yicha narxlarning oylik o'sish sur'ati 2018-yilning mos davrlariga nisbatan pastroq bo'lganligi quyida grafikda namoyish etilgan.




**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlarini dinamikasi, %**

**o'tgan yilning dekabriga nisbatan**




—●— 2018-yil      —●— 2019-yil

2019-yilda nooziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlarini dinamikasi yil davomida nisbatan barqaror bo'ldi (ko'rsatkich 109,5 % - 112,2 % oralig'ida). Bundan farqli ravishda, o'tgan yilning yanvar-avgust oylarida narxlar indeksi dinamikasi 117,7 % - 119,5 % oralig'idagi biroz tebranishlardan keyin, 112,5 %gacha sezilarli darajada pasayish tendensiyasi kuzatilib, bu quyidagi grafikda ko'rsatilgan.




## O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlarini indeksini dinamikasi, %

o'tgan yilning mos oyiga nisbatan




2018-yil



2019-yil



Joriy yilning dekabr oyida umumiy INIning hisoblash uchun tovarlar va xizmatlar to'plamining tarkibida eng katta ulushga ega bo'lgan guruhlar orasida nooziq-ovqat tovarlari iste'mol narxlarini indeksining batafsil tahliliga kelsak, zargarlik buyumlari (1,0 %), kiyim-kechak va oyoq kiyim (0,7 %), dori-darmonlar va maishiy buyumlar (har biri 0,6 %dan), qurilish materiallari, shaxsiy gigiyena vositalari, uy-ro'zg'or buyumlari va elektr jihozlari (har biri 0,4 %dan) narxlarini sezilarli darajada ko'tarilgan. Boshqa tovarlar guruhlarida gurgurt (1,6 %), iplar (1,4 %), gilam va gilam mahsulotlari (0,9 %), aloqa vositalari (0,7 %), oshxona anjomlari va maishiy texnika, yuvish vositalari va tozalash vositalari (har biri 0,6 %), attorlik buyumlari, soatlar, kompyuterlar va periferik uskunalari (har biri 0,5 %) narxlarining sezilarli o'sishi qayd etildi.


➤ **Ma'lumot uchun:** 2018-yilning dekabrda kuzatilayotgan nooziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan bir oy davomida narxlarning o'sishi bo'yicha tamaki mahsulotlari (4,9 %), iplar (3,7 %), o'yinchoqlar (3,3 %), aloqa vositalari (3,1 %), yuvish va tozalash vositalari (2,8 %) yetakchi o'rinlarni egallagan. Ushbu oy davomida kiyim-kechak va oyoq kiyimlar 1,9 % va 1,2 %ga, mebel, gilam va gilam mahsulotlari 1,8 %ga, asosiy maishiy mahsulotlar va elektr asboblari, oshxona buyumlari va elektr jihozlari 1,4 %ga qimmatlashgan.



2019-yilda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha alohida turdagi nooziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlarini indeksi dinamikasi, %


o'tgan oyga nisbatan






## 2019-yilda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha alohida turdagi nooziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, %

o'tgan oyga nisbatan



■ Asosiy maishiy mahsulotlar va elektr asboblari  
○ Madaniy mollar



■ Avtomobillar uchun yoqilg'i  
▲ Tamaki mahsulotlari

2019-yil boshidan kitoblar, gazeta va jurnallar (22,1 %), avtomobillar uchun yoqilg'i (20,8 %), zargarlik buyumlari (17,1 %), iplar (15,5 %), yuvish va tozalash vositalari (15,3 %) narxlari boshqa mahsulotlar narxlariga nisbatan ko'proq qimmatlashdi. Yil davomida asosiy maishiy mahsulotlar va elektr asboblari 13,4 %, tamaki mahsulotlari 12,8 %, madaniy mollar 12,7 %, aloqa vositalari 12,5 %, shaxsiy gigiyena mahsulotlari, matolar va eshilgan iplar 12,0 %, kiyim-kechak 10,4 %, oyoq kiyim 10,3 %ga qimmatlashdi.


➤ **Taqqoslash uchun:** 2018-yilda narxlar o'sishi bo'yicha kuzatilayotgan nooziq-ovqat mahsulotlari guruhlari top beshtaligiga quyidagi mahsulotlar kirgan:

- ✓ maishiy ehtiyoj uchun yoqilg'i (ko'mir) – 1,7 baravar;
- ✓ tamaki mahsulotlari – 28,0 %;
- ✓ avtomobil uchun yoqilg'i – 23,4 %;
- ✓ gugurt – 22,3 %;
- ✓ qurilish materiallari – 18,6 %.



## O'zbekiston Respublikasi bo'yicha alohida turdagi nooziq-ovqat mahsulotlari iste'mol narxlarini indeksi, %

o'tgan yilning dekabriga nisbatan



INIning hisoblash uchun tovarlar va xizmatlar to'plamining tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining asosiy guruhlari ulushini hisobga olgan holda, dekabr oyidagi umumiy ko'rsatkichning o'sishiga kiyim-kechak va oyoq kiyimlar narxlarining oshishi sezilarli darajada hissa qo'shdi (ta'siri 0,07 f.d., yoki nooziq-ovqat mahsulotlarining umumiy ta'siridan 38,9 %ni tashkil etdi).


Boshqa guruhlarning hissasi 0,01-0,02 f.d. doirasida bo'ldi. Shunday qilib, qurilish materiallari va dori-darmonlar narxlarining ko'tarilishi oy davomidagi umumiy INIning 0,04 f.d.g'a oshirdi (har birining hissasi 0,02 f.d.). Matolar va eshilgan iplar, maishiy to'qimachilik mahsulotlari, zargarlik buyumlari, mebellar, gilam va gilam mahsulotlari, asosiy maishiy mahsulotlar va elektr asboblari, yuvish va tozalash vositalari, madaniy mollar, aloqa vositalari, shuningdek, shaxsiy gigiyena mahsulotlari narxlarining o'sishi sababli umumiy INI yana 0,07 f.d. oshirdi.




**2019-yil dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlari narxlarining o'zgarishi va ularning umumiy iste'mol narxlarini indeksidagi ta'siri, f.d.**

o'tgan oyga nisbatan

**umumiy INI o'sishidagi ta'siri f.d.**



**nooziq-ovqat mahsulotlari ta'siridagi ulushi, %**



- kiyim-kechak va oyoq kiyim
- mato va eshilgan iplar, maishiy to'qimachilik mahsulotlari
- zargarlik buyumlari
- qurilish materiallari
- mebel, gilam va gilam mahsulotlari

- asosiy maishiy mahsulotlar va elektr asboblari
- yuvish va tozalash vositalari
- dori-darmonlar
- madaniy mollar va aloqa vositalari
- shaxsiy gigiyena mahsulotlari

**Ma'lumot uchun:** 2018-yil dekabr oyida umumiy INI o'sishiga asosan nooziq-ovqat mahsulotlaridan kiyim-kechak va oyoq kiyimlar (jami 0,17 f.d.), shaxsiy gigiyena mahsulotlari, yuvish va tozalash vositalari (0,08 f.d), dori-darmonlar (0,03 f.d.) narxlarining ko'tarilganligi ta'sir ko'rsatgan.

Asosiy maishiy mahsulotlar va elektr asboblari, matolar va eshilgan iplar, aloqa vositalari, maishiy to'qimachilik mahsulotlari, tamaki mahsulotlari, shuningdek, mebel narxlarining o'sishi umumiy hisobda INIning yana 0,12 f.d.ga oshirdi.


Nooziq-ovqat mahsulotlarining boshqa guruhlari narxlarining o'sishidagi har bir guruhning ta'siri 0,01 f.d.dan oshmadi.



## 2019-yil dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlari narxlarining o'zgarishi va ularning umumiy iste'mol narxlarini indeksi o'sishidagi ta'siri, f.d.

o'tgan yilning dekabriga nisbatan


### umumiy INI o'sishiga ta'siri, f.d.



Asosiy maishiy mahsulotlar va elektr asboblari narxlarining o'sishi umumiy INIning 0,24 f.d.ga oshirdi (nooziq-ovqat mahsulotlarining ta'sirida 6,3 %), shuningdek, yuvish va tozalash vositalari 0,22 f.d. (5,8%), dori-darmonlar, shaxsiy gigiyena vositalari, matolar, eshilgan iplar va maishiy to'qimachilik mahsulotlari 0,20 f.d. (har biri 5,3 %), madaniy mollar va aloqa vositalari, mebel, gilam va gilam mahsulotlarining har biri 0,14 f.d.dan (3,7 %) hissa qo'shdi.

2018-yilning dekabriga nisbatan umumiy INI o'sishiga nooziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlaridan kiyim-kechak va oyoq kiyim (1,05 f.d. yoki nooziq-ovqat mahsulotlarining umumiy ta'siridan 27,7 %), avtomobillar uchun yoqilg'i va maishiy yonilg'i (0,60 f.d. yoki 15,8%), shuningdek, qurilish materiallari (0,31 f.d. yoki 8,2 %) narxlaridagi o'zgarishlar sezilarli hissa qo'shgan.

### nooziq-ovqat mahsulotlari ta'siridagi ulushi, %



- |   |   |
|---|---|
| kiyim-kechaklar va oyoq kiyim                                 | dori-darmonlar  |
| matolar, eshilgan iplar va maishiy to'qimachilik mahsulotlari | avtomobillar uchun yoqilg'i va maishiy yonilg'i         |
| zargarlik buyumlari   | madaniy mollar va aloqa xizmatlari                      |
| qurilish materiallari   | shaxsiy gigiyena vositalari                             |
| mebel, gilam va gilam mahsulotlari                            | shaxsiy transport va avtomobillar uchun ehtiyot qismlar |
| asosiy maishiy mahsulotlar va elekt asboblari                 | kitoblar, gazeta va jurnallar, kanselyariya mollari     |
| yuvish va tozalash vositalari                                 | boshqalar   |

➤ **Taqqoslash uchun:** 2018-yilda nooziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlaridan umumiy INI o'sishiga qurilish materiallari (0,82 f.d.), kiyim-kechak (0,80 f.d.), avtomobillar uchun yoqilg'i (0,61 f.d.), maishiy yonilg'i (0,54 f.d.) va oyoq kiyim (0,33 f.d.) narxlarining o'zgarishi salmoqli hissa qo'shgan. Dori-darmonlar narxlarining o'sishi yil davomida umumiy ko'rsatkichga 0,16 f.d., shaxsiy gigiyena vositalari 0,15 f.d., matolar va eshilgan iplar - 0,11 f.d., maishiy to'qimachilik mahsulotlari, tamaki mahsulotlari, yuvish va tozalash vositalari, asosiy maishiy mahsulotlar va elektr asboblarning har biri 0,09 f.d.dan qo'shdilar.

Quyida nooziq-ovqat mahsulotlarining tanlab olingan boshqa guruhlarini bo'yicha INI keltirilgan:



**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari alohida guruhlarining iste'mol narxlarini indeksi, %**

**o'tgan yilning dekabriga nisbatan**

Guruh nomi	2019-yil dekabr	2018-yil dekabr
Mebel	109,3	106,9
Gilam va gilam mahsulotlari	110,9	109,7
Oshxona jihozlari va anjomlari	110,0	106,7
Yuvish va tozalash vositalari	115,3	106,4
Aloqa vositalari	112,5	108,5
Shaxsiy transport	105,2	107,0
Avtomobillar uchun ehtiyot qismlar	109,7	106,8
Maishiy yonilg'i (ko'mir)	110,0	174,3
Kompyuterlar va periferik uskunalar	107,1	104,5
Kitoblar, gazetalar va jurnallar	122,1	116,4
Qishloq xo'jaligi anjomlari	109,8	104,1

# 5

2019-yilda eng yuqori narxlarda kuzatilgan nooziq-ovqat mahsulotlari TOP beshtaligi



2019-yilning yanvar-dekabr oylarida umumiy INI o'sishiga umumiy ta'siri

**0,6 f.d.**

➤ **Ma'lumot uchun:** 2018-yilda nooziq-ovqat mahsulotlaridan narxlarning o'sishi bo'yicha yetakchi beshtaligiga quyidagi mahsulotlar kirgan:

- ✓ *propan* - 79,8 %;
- ✓ *maishiy yonilg'i (ko'mir)* - 74,3 %;
- ✓ *qurilish uchun g'isht* - 52,1 %;
- ✓ *metan* - 33,3 %;
- ✓ *filtrli sigaretlar (mahalliy)* - 32,8 %.

# 5

2019-yilda umumiy INI o'sishiga eng yuqori ta'sir ko'rsatgan nooziq-ovqat mahsulotlari TOP beshtaligi



2019-yilning yanvar-dekabr oylarida umumiy INI o'sishiga jami ta'siri

**0,8 f.d.**



➤ **Ma'lumot uchun:** 2018-yilda kuzatilayotgan nooziq-ovqat mahsulotlaridan umumiy INI o'sishida quyidagi mahsulotlar narxlarining ko'tarilishi yaqqol ta'sir etgan:

- ✓ maishiy ehtiyoj uchun ko'mir 0,54 f.d.;
- ✓ g'isht 0,31 f.d.;
- ✓ metan 0,29 f.d.;
- ✓ propan 0,27 f.d.
- ✓ sement 0,18 f.d.

## Xizmatlarning iste'mol narxlari indeksi



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi uchun pullik xizmatlarning iste'mol narxlari indeksi, %



O'rtacha oylik INI o'sish sur'ati hisoblanish natijalariga ko'ra, 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida aholi uchun pullik xizmatlar narxlarining o'sish sur'ati 1,2 %ni tashkil etdi.

➤ **Taqqoslash uchun:** 2018-yilda aholiga pullik xizmat ko'rsatish iste'mol narxlari indeksining o'rtacha oylik o'sish sur'ati 1,2 %ni tashkil etgan.




O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi uchun pullik xizmatlarning iste'mol narxlari indeksi, %

o'tgan oyga nisbatan



2019-yil

2018-yil




2019 va 2018-yillarning yanvar-dekabr oylarida tariflarning o'zgarishi dinamikasi barqaror o'sish tendensiyasi bilan tavsiflanadi (guruh bo'yicha qisqa muddatli iste'mol narxlari indeksi har oyda 100,0 %dan yuqori).

Bunda, 2019-yil mobaynida tariflarning bir oy davomidagi maksimal o'sish sur'ati avgust oyida (5,6 %), 2018-yilda esa aprel (2,7 %), may (2,1 %) va noyabr (3,3 %) oylarida kuzatilgan bo'lib, bu asosan, uy-joy kommunal xizmatlari asosiy turlari tariflarning oshgan narxlarini amaliyotga joriy etilganligi bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi uchun pullik xizmatlarning iste'mol narxlari indeksi, %



o'tgan yilning dekabriga nisbatan



2018-yil 2019-yil


2018-yilning yanvar-iyul oylarida aholiga pullik xizmat ko'rsatish INIsi o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan 2019-yilning shu davrida ancha yuqori bo'lganligi yuqorida keltirilgan diagramma ma'lumotlarida yaqqol namoyish etilgan.

2019-yilning avgust oyida kommunal xizmatlar tariflarining oshishida keskin burilish bo'lib, shu sababli 2019-yildagi ushbu guruh ko'rsatkichlari umumiy ko'rinishda yetakchilik qila boshladi. Bu holat noyabrgacha davom etdi va dekabr oyida aholi uchun pullik xizmatlar tariflarining iste'mol narxlari indeksidagi yetakchi o'rinni yana 2018-yil ko'rsatkichlari egalladi. Bunday o'zgarish o'tgan yilning oxirgi oyidagi tariflarning oshishi bilan bog'liq (2018-yilning dekabrda oy davomidagi 1,3 %ga qarshi 2019-yil dekabrda 0,3 %).


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi uchun pullik xizmatlarning iste'mol narxlari indeksi, %



o'tgan yilning mos oyiga nisbatan



2018-yil



2019-yil

Aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish iste'mol narxlari indeksining yillik tahliliga ko'ra, oxirgi ikki yil ma'lumotlari natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, may (2019-yilda 112,5 %ga qarshi 2018-yildagi 113,7 %) va dekabr (mos ravishda 115,2 %ga qarshi 115,8 %) oylari natijalarini hisobga olmaganda 2019-yil davomidagi ko'rsatkichlar yuqori bo'lgan.



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi uchun  
alohida turdagi xizmatlarning iste'mol narxlari  
indeksi, %



o'tgan oyga nisbatan

	<b>Maishiy xizmatlar</b>		<b>Uy-joy kommunal xizmatlari</b>
	101,0		100,0
	<b>Aloqa xizmatlari</b>		<b>Yo'lovchi tashish transporti xizmatlari</b>
	100,0		100,3
	<b>Dam olish xizmatlari</b>		<b>Madaniyat muassasalari xizmatlari</b>
	100,1		100,4
	<b>Sport xizmatlari</b>		<b>Tibbiy xizmatlar</b>
	100,5		100,5

2019-yilning dekabrda xizmatlar tariflarini oy davomida o'rtacha 0,3 %ga ko'tarilib, maishiy (1,0 %), sport va sog'liqni saqlash (har biri 0,5 %dan), madaniyat muassasalari xizmatlari (0,4 %) ushbu qiymatdan yuqori darajada oshgan.




Boshqa xizmat guruhlarini tariflarining oy davomidagi o'sishi o'rtacha guruh qiymatidan oshmay, uy-joy-kommunal xizmatlari, maktabgacha ta'lim muassasalari xizmatlari narxlari oldingi oy darajasida qoldi.

Quyida 2019-yildagi aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish ayrim guruhlarining iste'mol narxlari indeksi dinamikasi keltirilgan.



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish alohida guruhlarining iste'mol narxlarini indeks dinamikasi, %

o'tgan oyga nisbatan



Yil davomida aholi uchun pullik xizmatlar tariflarining o'zgarishiga kelsak, asosiy guruhlarining sezilarli o'sishi ta'lim (22,0 %), davlat byudjeti mablag'lari hisobidan maktabgacha ta'lim muassasalari (20,5 %) maishiy (18,8 %), uy-joy kommunal xo'jaligi (17,8 %), sport (13,3 %), dam olish (13,2 %) xizmatlari sohalarida kuzatildi. Ushbu davrda yo'lovchi tashish transporti xizmatlari 12,9 %, tibbiy xizmatlar 11,7 %, madaniy muassasalar xizmatlari 7,7 %, aloqa xizmatlari 5,2 %ga qimmatladi.



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish alohida guruhlarining iste'mol narxlari indeksi dinamikasi, %

o'tgan yilning dekabriga nisbatan


Xizmatlar nomi	2019-yil dekabr	2018-yil dekabr
Maishiy xizmatlar	118,8	112,2
Uy-joy kommunal xizmatlari	117,8	125,6
Yo'lovchi tashish transporti xizmatlari	112,9	114,8
Aloqa xizmatlari	105,2	111,7
Madaniyat muassasalari xizmatlari	107,7	105,5
Sport xizmatlari	113,3	115,5
Dam olish xizmatlari	113,2	119,3
Tibbiy xizmatlar	111,7	107,9
Ta'lim xizmatlari	122,0	117,0
Maktabgacha ta'lim muassasalari xizmatlari	120,5	106,4



## 2019-yil dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholiga pullik xizmat ko'rsatishning alohida guruhlarining iste'mol narxlari indeksi, %


o'tgan yilning dekabriga nisbatan

### Maishiy xizmatlar




2019-yilda umumiy maishiy xizmatlarning 18,8 %ga o'sishida xizmatlarning ayrim turlari sezilarli darajada qimmatlashdi. Bular orasida hammom va dush xizmatlari, avtomobil yuvish, uy-joy, maishiy uskunalar, va transport vositalarini ta'mirlash xizmatlari bor.

### Uy-joy kommunal xizmatlari



Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida 2019-yilda sovuq suv ta'minoti va kanalizatsiya, elektr-energiyasi, tarmoq va suyultirilgan gaz tariflari boshqalarga nisbatan sezilarli darajada oshdi. Issiq suv va issiqlik ta'minoti uchun to'lovlar past darajada o'sdi.

### Yo'lovchi tashish transporti xizmatlari




Shahar elektr transporti xizmatlari yo'lovchi tashish xizmatlari sohasidagi tariflarning o'sishida yetakchilik qildi. Havo transporti va poyezd chiptalari narxlari past darajada qimmatlashgan.




2019-yil dekabr oyida  
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha INIning o'sishida  
aholiga pullik xizmat ko'rsatishning asosiy guruhleri  
bo'yicha narxlardagi o'zgarishlarning hissasi tarkibi

o'tgan oyga nisbatan

umumiy INI  
o'sishidagi hissasi, f.d.



aholiga pullik xizmatlar  
ta'sirining ulushi, %



Maishiy xizmatlar

Yo'lovchi tashish transporti xizmatlari

Tibbiy xizmatlar

Boshqalar

2019-yilning oxirgi oyi davomida xizmatlarning asosiy guruhleri tariflari o'zgarishining umumiy INI o'sishidagi hissasini baholagan holda shuni ta'kidlash mumkinki, maishiy xizmat ko'rsatish guruhining hissasi ushbu o'sishda ko'proq ahamiyat kasb etdi.

Yo'lovchi tashish transporti xizmatlari va tibbiy xizmatlarning har biri umumiy ko'rsatkich oshishiga 0,01 f.d.dan hissa qo'shishdi. Madaniyat, ta'lim, sport va dam olish xizmatlari narxlarining oshishi sababli, oy davomida umumiy INI yana 0,01 f.d.ga oshdi.

**Taqqoslash uchun:** 2018-yilning dekabr oyida aholiga pullik xizmat ko'rsatishning asosiy turlaridan uy-joy kommunal xizmatlari (xizmatlar umumiy ta'sirining 28,6 %), maishiy xizmatlar (25,0 %) va yo'lovchi tashish transporti xizmatlari (21,4 %) tariflarining o'zgarishlari oy davomida umumiy INI o'sishiga salmoqliroq hissa qo'shgan.


2018-yilning dekabr oyiga nisbatan iste'mol narxlari indeksi o'sishiga ta'siri bo'yicha uy-joy kommunal xizmatlari (1,08 f.d.) yetakchilikni egallab turibdi.




2019-yil dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholiga pullik xizmat ko'rsatish asosiy guruhlari narxlari o'zgarishlarining umumiy INI o'sishi tarkibidagi hisslari

o'tgan yilning dekabriga nisbatan

umumiy INI o'sishidagi hisslari, f.d.



aholiga pullik xizmatlar ta'sirining ulushi, %



Maishiy xizmatlar

Tibbiy xizmatlar

Uy-joy kommunal xizmatlari

MTM xizmatlari

Transport va aloqa xizmatlari

Madaniyat va sport muassasalari xizmatlari

Ta'lim xizmatlari


Boshqalar

Maishiy xizmatlar tariflarining ko'tarilishi umumiy ko'rsatkichning oshishiga qo'shimcha 0,66 f.d., yo'lovchi tashish transporti va aloqa xizmatlari 0,56 f.d., ta'lim xizmatlari 0,39 f.d., tibbiy xizmatlar 0,24 f.d., maktabgacha ta'lim muassasalari xizmatlari – 0,21 f.d. hissa qo'shdi.

**Ma'lumot uchun:** 2018-yilda aholiga pullik xizmatlarning asosiy guruhlaridan uy-joy kommunal xizmatlar (1,49 f.d., yoki xizmatlar umumiy ta'sirining 43,8 %), yo'lovchi tashish transporti va aloqa xizmatlari (0,77 f.d., yoki 22,6 %), maishiy xizmatlar (0,44 f.d., yoki 12,9 %), va ta'lim xizmatlari (8,8 %) umumiy INIga boshqalarga nisbatan ko'proq ta'sir ko'rsatgan.

5

2019-yilda aholiga pullik xizmat ko'rsatish bo'yicha narxlar va tariflarning eng yuqori o'sishi kuzatilgan asosiy turdagi xizmatlar TOP beshtaligi



2019-yilning yanvar-dekabr oylarida umumiy INI o'sishiga jami ta'siri






0,5 f.d.

➤ **Ma'lumot uchun:** o'tgan yil yakunlariga ko'ra, kuzatilayotgan xizmatlardan tariflarning o'sishi bo'yicha yetakchi beshtalikka kirgan xizmatlar:

- *suyultirilgan gaz* - 94,4 %;
- *shaharlararo qo'ng'iroq* - 63,7 %;
- *sovuq suv ta'minoti va kanalizatsiya* - 46,9 %;
- *hammom va dush xizmatlari* - 32,0 %;
- *uzoq masofaga qatnaydigan poyezdda yo'l haqi* - 30,0 %.

5

2019-yilda pullik xizmatlar orasida umumiy iste'mol narxlarini indeksini o'sishiga maksimal ta'sir ko'rsatgan xizmatlarning TOP beshtaligi, f.d.

Tabiiy gaz uchun to'lov	I		0,45 f.d.
Elektr-energiya to'lovi	II		0,43 f.d.
Shartnoma asosida OTMda o'qish	III		0,33 f.d.
Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun to'lov	IV		0,21 f.d.
Uy-joylarni ta'mirlash xizmatlari	V		0,17 f.d.

**1,59 f.d.**

➤ **Ma'lumot uchun:** 2018-yilda kuzatilgan xizmatlar orasida umumiy INI o'sishiga eng katta ta'sir ko'rsatgan yetakchi 5 ta pog'onaga elektr-energiya (0,55 f.d.), tabiiy gaz (0,44 f.d.), shartnoma asosida OTMlarda o'qitish to'lovlari (0,21 f.d.), uy-joy ta'mirlash xizmatlari (0,08 f.d.), maktabgacha ta'lim muassasalari xizmatlari narxlarini (0,06 f.d.) kirgan.

**Narxlar statistikasi boshqarmasi**

**71-230-80-36**

**71-230-81-74**